



*hokimligi
maktabgacha va maktab ta'lifi
boshqarmasi*

*maktabgacha va
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumiy o'rta ta'lim maktabi
fizika fani o'qituvchisi*

*ning
20__-20__-o'quv yilida 8-9-sinflar bo'sh
o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun
“YOSH FIZIK” NOMLI*

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

№	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

“_____” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari _____

“

_” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To ‘garak rahbari _____

MMIBDO‘

**20__-20__-o‘quv yiliga bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun tuzilgan
“Yosh fizik” to‘garagining
ISH REJASI**

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Jismlarning zaryadlanishi			
2.	Elektr zaryadi			
3.	Zaryadlangan jismlaming o‘zaro ta’siri. Kulon qonuni			
4.	Elektr maydon			
5.	Tabiatdagi elektr hodisalar			
6.	Elektr toki haqida tushuncha.Tok manbalari			
7.	Elektr kuchlanish va uni o‘lchash			
8.	Tok kuchi va uni o‘lchash			
9.	Elektr qarshilik			
10.	Rezistorlar. Reostatlar. Potensiometrlar			
11.	Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni			
12.	Iste’molchilarni ketma-ket ulash			
13.	Iste’molchilarni parallel ulash			
14.	Elektr tokining ishi			
15.	Elektr tokining quvvati			
16.	Lampochkadagi tokning quvvati va sarflangan energiyani aniqlash			
17.	Elektr toki ta’sirida o‘tkazgichlarning qizishi			
18.	Xonadondagi elektr zanjiri. Qisqa tutashuv			
19.	Xonodon elektr zanjiridagi ulashlar			
20.	Elektr xavfsizlik choralar			
21.	Suyuqliklarda elektr toki			
22.	Elektroliz. Faradeyning bиринчи qonuni			
23.	Faradeyning ikkinchi qonuni			
24.	Gazlarda elektr toki			
25.	Bir jinsli magnit maydonda tokli ramkaning aylanma harakati			
26.	Magnit maydonda zaryadli zarralarning harakati			
27.	O‘zgarmas tok elektr dvigateli			
28.	Elektr razryadning turlari va ulardan foydalanish			
29.	Magnit maydon. Doimiy magnit va uning			
30.	Tokning magnit maydoni			
31.	Magnit maydonning tokli o‘tkazgichga ta’siri			
32.	Bir jinsli magnit maydonda tokli ramkaning aylanma harakati			
33.	Magnit maydonda zaryadli zarralarning harakati			
34.	Elektromagnitlar. Elektromagnit rele			

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: ___. To‘garak rahbari: _____

Mashg‘ulotning mavzusi: Jismlarning zaryadlanishi

Mashg‘ulotning maqsadi :

- ✓ **Talimiyl maqsad:** O‘quvchilarga jismlarning elektrlanishi xaqida tushuncha berish.
- ✓ **Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni tabiatga bo‘lgan muhabbatini o‘yg‘otish, Tabiatni asrab avaylashga o‘rgatish.
- ✓ **Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish.

II.Mashg‘ulot turi: Maruza

III.Mashg‘ulot jixozi: Shisha va ibonit tayoqchalar

Mashg‘ulotning borishi

1.Tashkiliy qism: O‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb qilish. Salomlashish. Yuqlama qilish. Dunyo yangiliklaridan xabardor qilish.

2. O‘tilgan mavzu bayoni: Takrorlash

3.Yangi mavzuning bayoni:

Mavzu bayoni

Plastmassa taroq yoki ruchkani socliingizga ishqalab, maydalangan qog‘ozga yaqinlashtiring. Ular qog‘oz qiyqimlarini o‘ziga tortganini ko‘rasiz (2-rasm). Bu kabi hodisalarni odamlar qadim zamonaldayoq payqaganlar.

Bir necha yuz ming yil ilgari o‘sgan ignabargli daraxtlar qoldig‘ining toshga aylangan smolasini yunonlar «*elektron*» deb atashgan.

Mo‘yna (jun)ga ishqalangan *elektron* (*smola*) turli mayda jismlarni o‘ziga tortgan. «*Elektr*» so‘zi ham shundan kelib chiqqan.

Ishqalangan jismlarning tortishish hodisasini birincli bo‘lib yunon olimi **Fales Miletksiy** (mil. av. 625—547) aytgan.


Buyuk bobokalonimiz **Abu Rayhon Beruniy** (973— 1048) ham bir-biriga ishqalangan jismlarning tortishish xossasiga ega bo‘lib qolishini o‘rgangan. Beruniy «*elektron*» tayoqchani «*kahrabo*» deb atagan. «*Kahrabo*» so‘zi forschadan «*somon tortuvchi*» ma’nosini anglatadi. Haqiqatan ham, mo‘ynaga ishqalangan kahrabo tayoqcha somon bo‘laklarini o‘ziga tortadi.

Kahrabo kamyob bo‘lgani uchun uning o‘rniga ebonit yoki sliisha tayoqchalardan foydalilanadi. *Ebonit* — bu oltingugurt aralashtirilgan kauchuk (qattiq rezina)dan tayyorlangan material.

Ebonit tayoqchani mo‘ynaga ishqalaganda ham, sliisha tayoqchani shoyiga ishqalaganda ham tayoqchalar elektrlanib qoladi. Elektrlangan jismlarga faqat qattiq jismlar emas, balki suyuq va gaz holatdagi moddalar ham tortiladi. Masalan, elektrlangan tayoqcha jildirab tushayotgan suvni ham, sham alangasini ham o‘ziga tortadi.

Yangi mavzu: Kirish suhbatida «*elektr*»dan kundalik turmushda foydalinish, har bir elektr asbobining bajaradigan vazifasi hamda elektr eneigiyasiz shu kunda inson faoliyat ko‘rsata olmasligi haqida misollar bilan tushuntiriladi. Bundamashg‘ulotnidavrasuhbatiqaliolib b1orilsa, harbiro‘quvchiningshaxsan o‘zi uyda, ko‘chada va maktabda elektrdan qanday foydalaniishi haqida gapixib berishlari so‘raladi. AQSHda, Rossiyada (2005-yil may, Moskva) bir yoki bir necha kun elektr enetgiyasi bo‘lmasligi oqibatida qanchalik zarar ko‘rilganligi aytildi.

Jismlarning zaryadlanishini tushintirishda quyidagi Slayddan foydalanamiz.



Moskva (rus. Москва) - Rossiya Federatsiyasi poytaxti, Moskva viloyati markazi, federal ahamiyatidagi shahar. Rossiya Federatsiyasining yirik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy markazi. Moskvada Rossiya Federatsiyasi Prezidenta, Federal Majlis, Rossiya Federatsiyasi hukumati, Konstitutsiyaviy Sud, Oliy Sud, Oliy arbitraj sudi, Rossiya Federatsiyasi Prokuraturasi qarorgohlari joylashgan.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh, ingl. United States of America) - Shimoliy Amerikadagi mamlakat. Poytaxti - Vashington shahri, BMT a'zosi. Amerika Qo'shma Shtatlari Sharqdan Atlantika, g'arbdan Tinch okeani, janubi-sharqdan Meksika qo'ltig'i bilan o'ralgan.

Rossiya (ruscha. Россия), Rossiya Federatsiyasi (ruscha. Российская Федерация) - Yevropaning sharqida, Osiyoning shimalida joylashgan mamlakat. Maydoni jihatidan dunyoda eng katta mamlakat. Quruqlikdagi chegarasi 22125,3 km, dengiz chegarasi 38807,5 km. R.

Shundan so'ng tajribalar namoyish qilinadi. Tajribalarni oddiyalaridan boshlab ko'rsatilib, oxirida sal murakkablari ko'rsatiladi. Oddiy tajribalar mashg'ulotlikdagi 1—5-rasmlarda keltirilgan. 0'quvchilarga ham taroq, ruchka kabi buyumlami sochga yoki ro'mol-chaga ishqalab yengil qog'oz parchalarini tortish xususiyati mavjud bo'lib qolishiga ishonch hosil qildiriladi. Shu tajribalar vositasida ishqalash usuli bilan jismlaming zaryadlanishi va uning ikki turda bo'lishi uqtiriladi.

Shartli ravishda shoyiga ishqalangan shisha tayoqchada musbat, mo'y- naga ishqalangan kahrabo tayoqchasida manfiy zaryad hosil bo'lishi qabul qilinganligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Tajribalarda shuningdek, bir xil ishorada zaryadlangan jismlaming o'zaro itarishishi, turli ishorada zaryadlangan jismlaming o'zaro tortishishi ko'rsatiladi.

Ishqalanish vositasida jismlaming elektrianishi ba'zi hollarda zararli bo'lishi aytib o'tiladi. Shunga ko'ra yengil avtomobillar orqasida rezina lenta shak- lida osilib yerga tegib yuradigan elementi bo'lishi aytib o'tiladi. Zaryadlanib qolgan jismlaming zaryadlanishi davrida uchqun chiqishi va buning natija- sida yong'in kelib chiqishi uqdiriladi. Masalan, benzin shlang orqali quyila- yotganda suyuqlik shlangga ishqalanib zaryadlanadi. Shlangning metall uchi, quyuvchi metall apparatga tekganda, uchqun hosil bo'lib, yong'in chiqqan holatlar kuzatilgan. Shunga ko'ra ehtiyyot choralar ko'rildi.

Bir xil ishorali elektrlangan jismlar bir-biridan itariladi, turli ishorali elektrlangan jismlar esa bir-biriga tortiladi.

4.Mashg'ulotni mustaxkamlash uchun savollar:

- *Jismlarning elektrlanganligini tajribada qanday payqash mumkin?*
- *«Elektr» so'zi qayerdan kelib chiqqan?*
- *Ishqalangan jismlarning tortishish hodisasi birinchi bo'lib kim tomonidan aytilgan?*
- *Beruniy ishqalangan jismlarning tortishishi haqida nimalarни yozib qoldirgan?*

Sana: “ ” 20 -yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mashg‘ulotning mavzusi: Elektr zaryadi

Mashg‘ulotning maqsadi :

- ✓ **Talimiyl maqsad:** O‘quvchilarga elektr zaryadi xaqida ma’lumot berish.
- ✓ **Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarni tabiatga bo‘lgan muhabbatini o‘yg‘otish, Tabiatni asrab avaylashga o‘rgatish.
- ✓ **Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish.

II.Mashg‘ulot turi: Maruza

III.Mashg‘ulot jixozi: Mashg‘ulotlik, plakat, slaydlar, tarqatma materiallar

Mashg‘ulotning borishi

1.Tashkiliy qism: O‘quvchilarni mashg‘ulotga jalb qilish. Salomlashish. Yuqlama qilish. Dunyo yangiliklaridan xabardor qilish.

2. O‘tilgan mavzu bayoni: Takrorlash

3.Yangi mavzuning bayoni:

Yunon olimlari tabiatdagi barcha narsalar atomlardan tashkil topgan deb hisoblaganlar. «Atom» so‘zini yunon mutafakkiri **Demokrit** (mil. av. 460—370) kiritgan. Bu so‘z «bo‘linmas» degan ma’noni bildiradi. XX asrda olimlar atomning ham bo‘linishi mumkinligini va u murakkab tuzilishga ega ekanligini aniqladilar.

1911- yilda ingliz fizigi **Ernest Rezerford** (1871—1937) tajriba asosida atom tuzilishiining modelini kaslif etdi. Bu modelga ko‘ra:


Atom markazida yadro joylashgan bo‘lib, u proton va neytronlardan tashkil topgan. Atom yadrosi atrofida orbita bo‘ylab elektronlar harakat qiladi.

Protonlar musbat, elektronlar esa manfty ishorali elektrlangan zarralardir. Neytronlar — elektrlanmagan (neytral) zarralar. Atomdagi elektronlar soni protonlar soniga teng bo‘ladi. Masalan, vodorod (H) atomining yadrosi faqat 1 ta protondan iborat bo‘lib, yadro atrofida ham faqat 1 ta elektron harakatlanadi. Geliy (He) atomida 2 ta proton va 2 ta elektron, litiy (Li) atomida esa 3 ta proton va 3 ta elektron mavjud (11- rasm). Atomning o‘zi elektr jihatdan neytraldir.

Ebonit tayoqchani elektrlab, elektrometr sharchasiga tekkizilsa, uning ko‘rsatkichi og‘adi (12- rasm). Tayoqchani yana bir bor ishqalab, elektrometr sharcha- sini yana elektrlasak, uning ko‘rsatkichi kattaroq burchakka og‘adi. Shu tariqa elektrometr ko‘rsatkichini yanada katta burchakka og‘dirish mumkin. Demak, jismning elektrlanganlik darajasi o‘zgarishi mumkin. Elektr zaryadi musbat yoki manfty bo‘ladi. Shoyiga ishqalangan sliisha tayoqcha musbat zaryadlanadi, shoyining o‘zi esa manfty zaryadlanib qoladi.

Bunga sabab nima? Sabab shuki, ishqalanish paytida sliisha tayoqcha atomlari elektronlarining bir qismi shoyiga o‘tadi. Shuning uchun shoyida manfty zaryad-lar ortib ketadi. Natijada shoyi manfty zaryadlanib qoladi. Sliisha tayoqchada esa elektronlar nisbatan kamaygani uchun musbat zaryadlar ortib ketadi. Natijada tayoqcha musbat zaryadlangan bo‘lib qoladi.

Mo‘ynaga ebonit tayoqcha ishqalanganda, mo‘yna atomlaridagi clktonlaming bir qismi ebonit tayoqchaga o‘tganligi sababli tayoqcha manfty, mo‘yna esa musbat zaryadlanadi.



Elektrlanganlik darajasini tavsiflovchi fizik kattalik elektr zaryadi deb ataladi va *q* harfi bilan belgilanadi. Xalqaro birliklar sistemasida uning birligi qilib *kulon* (C) qabul qilingan.

ayoqchada hosil qilingan zaryadli zarrachalar boshqa jismga berilsa, undagi zaryad tugaydi. Tayoqchada takror zaryad hosil qilish uchun uni yana matoga ishqalash kerak bo‘ladi. Lekin olimlar shunday asbob o‘ylab topdilarki, bu asbob yordamida uzluksiz ravishda zaryadlarni hosil qilib turish mumkin (13-rasm).

***Elektrofor mashina* yordamida uzluksiz ravishda zaryadlarni hosil qilish mumkin.**

Elektrofor mashina dastagi aylantirilganda, uning ikki disk qarama-qarslii tomoniga aylanadi. Aylanayotgan disklarning cho‘tkalarga ishqalanislii natijasida qarama-qarslii ishorali zaryadlar hosil bo‘ladi.

4.Mashg‘ulotni mustaxkamlash uchun savollar:

- Atom tuzilishining Rezerford modelini tushuntirib bering.
- Vodorod, gelyi va litiy atomlari qanday tuzilishga ega?
- Elektr zaryadi deb nimaga aytildi? U qanday belgilanadi va qanday birlikda o‘lchanadi?
- Jismlar bir-biriga ishqalanganda nima uchun zaryadlanib qoladi?

Sana: “ ” 20 -yil. Sinflar: ___. To‘garak rahbari: _____

Mashg‘ulotning mavzusi: Zaryadlangan jismlaming o‘zaro ta’siri. Kulon qonuni

Mashg‘ulotning maqsadi :

- ✓ **Talimiyl maqsad:** O‘quvchilarga Zaryadlangan jismlaming o‘zaro ta’siri. Kulon qonuni xaqida ma’lumot berish.
- ✓ **Tarbiyaviy maqsad:** O‘quvchilarini tabiatga bo‘lgan muhabbatini o‘yg‘otish, Tabiatni asrab avaylashga o‘rgatish.
- ✓ **Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, nutq madaniyatini o‘stirish.

II.Mashg‘ulot turi: Maruza

III.Mashg‘ulot jixozi: Falgadan yasalgan ipga osilgan trubkalar

Mashg‘ulotning borishi

1.Tashkiliy qism: O‘quvchilarini mashg‘ulotga jalb qilish. Salomlashish. Yuqlama qilish. Dunyo yangiliklaridan xabardor qilish.

2. O‘tilgan mavzu bayoni: Takrorlash

3.Yangi mavzuning bayoni:

Elektrlangan jismlar bir-biriga tegmasdan ma'lum masofada turib ham ta'siriashadi.

1785- yilda fransuz olimi Sharl Kulon elektr zaryadlarining o‘zaro ta’sirlashish konunini tajriba orqali kashf etdi.

Zaryadlangan jismlarning o‘zaro ta’siri buralma tarozi yordamida o‘rganilgan (14- rasm). Buralma tarozida ingichka elastik simga sliisha sterjcn osilgan. Sterjcnning bir uchiga A metall sharcha, ikkinclii uchiga esa C posangi mahkamlangan. Boshqa bir B metall sharcha tarozining qopqog‘iga qo‘zg‘almas qilib malikamlangan. Sharchalar bir xil ishorali zaryadlanganda A sharsha B sharchadan itariladi, turli ishorali zaryadlanganda esa tortiladi. A sharcha harakatga kelganda, osilgan sim buraladi. Shar- chalarning o‘zaro ta’sir kuchi simning buralish burcha- giga qarab aniqlanadi.

Kulon qonuni

Vakuumda joylashgan ikki qo‘zg‘almas nuqtaviy elektr zaryadlarining o‘zaro ta’sir kuchi ularning zaryad miqdorlari ko‘paytmasiga to‘g’ri proporsional va ular orasidagi masofaning kvadratiga teskari proporsionaldir.

$$F = k \frac{q_1 q_2}{r^2}$$

Kulon sharchalar orasidagi masofani turlicha qilib olgan. Kulon tajriba jarayonida sharchalarning zaryadini 2, 4, 8 va hokazo marta kamaytirib borgan. Tajriba natijalari sharchalar orasidagi Fta'sir kuchi A va B sharchalardagi Qi va q_2 zaryadlar miqdorlarining ko‘paytmasiga to‘g‘ri proporsional ekanligini ko‘rsatgan, ya’ni:

$$F \sim q_1 q_2$$

O‘zaro ta’sirlashayotgan jismlarni nuqtaviy zaryad deb olaylik. **Nuqtaviy zaryad** deb, o‘lchami va shakli liisobga olinmaydigan zaryadlangan jismga aytildi. Kulon (1) va (2) formulalarni umumlashtirib, nuqtaviy zaryadlarning o‘zaro ta’sir kuchi formulasi quyidagicha bo‘lisliini aniqladi:

4.Mashg‘ulotni mustaxkamlash uchun savollar:

- *Faradeyning elektr maydon to‘g‘risidagi ta’limoti nimalardan iborat?*
- *Elektrostatik maydon deb qanday maydonga aytildi?*
- *16- rasmda tasvirlangan tajriba jarayoni va uning natijalarini tushuntirib bering.*
- *Musbat va manfiy zaryadlangan jismlarda elektr maydon kuch chiziqlari qanday yo‘nalgan?*

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20____yil

*veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.*

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

Fizika fanidan 8-9-sinf bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Narxi: 20 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabihev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng;
Faqt o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng
yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga
joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**